

Test

Muallif: Akbarali Akbarov

Ushbu test 800 talik testimizdan na'muna agarda siz to'lli variantini sotib olmoqchi bo'lsangiz

@Akbaral1_me` nomli lichkaga murojaat qiling.

1. Gemofiliya bilan kasal ko'k ko'zli erkak qo'y ko'zli sog'lom ayolga (otasi gemofilik ko'k ko'z) uylandi. Nazariy jihatdan tug'ilishi mumkin bo'lgan o'g'il bolalarning necha foizi ko'k ko'zli bo'ladi?

A) 25 B) 12,5 C) 75 D) 50

2. Qunduz bilan bir tip (1), sinf (2), turkum (3), oila (4) ga mansub hayvonlarni aniqlang.

A) 1 - beluga; 2 - tyulen; 3 - ayiq; 4 - nutriya B) 1 - iguana; 2 - yexidna; 3 - kashalot; 4 - suvsar
C) 1 - suqsun; 2 - yumronqoziq; 3 - korsak; 4 - latcha D) 1 - qirg'iy; 2 - tapir; 3 - tyulen; 4 - norka

3. Tirik organizmlarning suv tanqisligida suvni zaxiralashga moslanish mexanizmlarini aniqlang.

1) sahro kalamushining yog' to'plashi; 2) alp o'tloqlari o'simliklarida barglarning so'linqirab turishi; 3) sahro baqasi maxsus siydik pufagida suvni zaxiralashi; 4) saksovul barglarining tangachasimon shaklda bo'lishi.

A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3

4. Hayvonot olamida aromorfoz yo'nalishiga mos evolutsion o'zgarishlarni aniqlang.

1) qoramol tasmasinon chuvalchangida so'rg'ichlarning paydo bo'lishi; 2) bo'g'imoyoqlilar tipining paydo bo'lishi; 3) exinokokda 2 juft so'rg'ichning paydo bo'lishi; 4) qon aylanish sistemasida katta va kichik qon aylanish doirasining paydo bo'lishi.

A) 2, 4 B) 1, 4 C) 3, 4 D) 1, 2

5. Evolutsiya natijasida organik olamda muhit sharoitiga maskirovka (a), ogohlantiruvchi rang (b) orqali moslashgan organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) kallima kapalagining qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o'xshash bo'lishi; 2) gornostayning yozda bir, qishda boshqa rangda bo'lishi; 3) qovog'ari tana rangi bilan ko'zga yaqqol tashlanishi; 4) xonqizi qo'ng'izining tana rangi bilan ko'zga yaqqol tashlanishi; 5) chupchik degan hasharot rangi va shakli ingichka novdani eslatishi

A) a - 3; b - 5 B) a - 4; b - 2 C) a - 1; b - 4 D) a - 2; b - 5

6. Pixta (a), baqlajon (b), g'umay (c) o'simliklari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) gulkosachabarglari to'rtta; 2) popuk ildiz tizimiga ega; 3) qo'sh urug'lanish kuzatilmaydi; 4) mevasi qo'zoqcha; 5) sekvoyadendron bilan bir bo'limga mansub; 6) xarduma bilan bir sinfga mansub; 7) ituzum turkumiga mansub.

A) a - 1, 6; b - 4; c - 6 B) a - 3, 5; b - 6; c - 3, 5 C) a - 7; b - 5; c - 2 D) a - 5; b - 7; c - 2, 6

7. Jigar hujayrasi tuzilmalari va ularda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.

1) ribosomaning shakllanishi; 2) translyatsiya; 3) r-RNK sintezi; 4) ATF sintezi; 5) glikogen sintezi.

a) sitoplazma; b) yadrocha; c) silliq endoplazmatik to'r; d) ribosoma; e) mitoxondriya.

A) 1 - b, 2 - d, 3 - b, 4 - a, 5 - c B) 1 - e, 2 - d, 3 - a, 4 - c, 5 - b

C) 1 - d, 2 - a, 3 - c, 4 - a, 5 - e D) 1 - e, 2 - d, 3 - b, 4 - c, 5 - d

8. Ekologik piramidaning asosini tashkil etuvchi organizmlarni aniqlang.

1) yapon laminariyasi; 2) tilyapiya; 3) xara; 4) aureliya; 5) foraminefera; 6) gledichiya.

A) 2, 6 B) 1, 3 C) 5, 6 D) 4, 5

9. Hayotning molekula (a) va hujayra (b) tuzilish darajasiga mos keladigan ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) donador va silliq endoplazmatik to'r membranalar tizimidan iborat; 2) riboza ribonuklein kislota tarkibiga kiradi; 3) uglerodning biogen migratsiyasi; 4) DNK ning purin asoslariga adenin va guanin kiradi; 5) xloroplastlar bo'linib ko'payadi.

A) a - 2; b - 5 B) a - 3; b - 2 C) a - 5; b - 3 D) a - 1; b - 5

10. Nazariy jihatdan na'matakda hosil bo'lgan spermiylarning 30%i urug'lantirishda ishtirok etdi. Shu o'simlikda 1080ta urug' hosil bo'lgan bo'lsa, jami mikrosporalarning hosil bo'lishida ishtirok etgan boshlang'ich diploid hujayralar sonini aniqlang.

A) 840 B) 860 C) 450 D) 900

11. To'g'ri fikrlar berilgan javobni aniqlang.

1) transmissibl plazmid asosiy xromosomadan mustaqil ravishda o'z-o'zini replikatsiya qiladi; 2) avtonom plazmidlar bir hujayradan ikkinchisiga hujayra qobig'i va teshiklaridan o'tadi; 3) endonukleaza zaharli toksin parchalovchi ferment sintezlovchi genetik tuzilma; 4) quyon zigotasiga o'sish gormoni geni kiritilib, transgen quyon olingan.

A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 3, 4

12. Ko'p urug'li, quruq mevali o'simliklarni aniqlang.

A) g'o'za, bug'doy B) nok, Greyg lolasi

C) karam, mosh D) boychechak, qayrag'och

13. Mitozning metafaza bosqichida 16 ta xromatidaga ega hujayralarni aniqlang.

1) drozofilaning zigotasi; 2) olchanning mikrosporasi; 3) tog'olchanning mikrosporasi; 4) drozofilaning ichak epiteliysi hujayrasi; 5) olchanning kambiy hujayrasi; 6) tog'olchanning o'sish konusi hujayrasi.

A) 1, 5 B) 3, 5 C) 2, 6 D) 3, 4

14. Tovuq va xo'rozlar patining chipor rangda bo'lishi (B) qora bo'lishi (b) ustidan, toj shaklining gulsimon bo'lishi (A) oddiy (a) bo'lishi ustidan to'liq dominantlik qiladi. Pat rangini yuzaga

chiqaruvchi genlar jinsiy X, toj shaklini belgilovchi genlar autosoma xromosomada joylashgan. Digeterozigotali xo'roz va gulsimon tojli, qora patli aXb gametalari yashovchan bo'lmagan tovuqlar (faqat urg'ochilarida aXb gametalari yashovchan emas) chatishtirilishidan jo'ja olinganligini hisobga olib quyidagilarni aniqlang.

a) chatishtirishdan olingan jo'jalarning fenotipik nisbatini; b) chatishtirishdan olingan oddiy tojli qora rangli jo'jalarning genotiplarini

A) a - 5 (gulsimon tojli chipor) : 5 (gulsimon tojli qora) : 1 (oddiy tojli chipor) : 1 (oddiy tojli qora); b - aaXbY

B) a - 5 (gulsimon tojli chipor) : 2 (oddiy tojli qora) : 5 (gulsimon tojli qora) : 1 (oddiy tojli chipor); b - aaXbY ;

C) a - 7 (gulsimon tojli chipor) : 1 (oddiy tojli qora) : 5 (gulsimon tojli qora) : 1 (oddiy tojli chipor); b - aaXbXb ; aaXbY ;

D) a - 7 (gulsimon tojli chipor) : 1 (oddiy tojli qora) : 5 (gulsimon tojli qora) : 3 (oddiy tojli chipor); b - aaXbXb ; aaXbY ;

15. Burun teshigi hid sezuvchi hujayralarga ega bo'lgan xaltachalarga ochiladigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

A) nandu, gekkon B) silovsin, kapachi qush

C) ildam kaltakesak, emu D) moybaliq, xumbosh baliq

16. Dengiz mushugining yuragiga . . . (I) keladi, maralning yuragidan . . . (II) chiqadi.

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) kichik qon aylanish doirasi venalari orqali arterial qon; 2) kichik qon aylanish doirasi venalari orqali venoz qon; 3) katta qon aylanish doirasi venalari orqali venoz qon; 4) kichik qon aylanish doirasi arteriyalari orqali venoz qon; 5) katta qon aylanish doirasi venalari orqali arterial qon; 6) katta qon aylanish doirasi arteriyalari orqali venoz qon; 7) katta qon aylanish doirasi arteriyalari orqali arterial qon; 8) kichik qon aylanish doirasi arteriyalari orqali arterial qon.

A) I - 2, 5; II - 3, 8 B) I - 1, 5; II - 4, 7 C) I - 1, 3; II - 4, 7 D) I - 4, 6; II - 2, 7

17. Diploid navli karam ($2n=18$) o'simligi changdonida mikrosporaning mitoz bo'linishining anafaza bosqichida mutatsiya tufayli ikkinchi va oltinchi xromosomalarning mustaqil xromatidalari tarqalmay bir qutbga o'tib qolsa, hosil bo'lgan spermiylardagi xromosomalar sonini aniqlang.

A) 10 yoki 8 B) 22 yoki 14 C) 11 yoki 7 D) 16 yoki 20

18. Nodirning chap qo'li venasidan yuborilgan dorining buyraklargacha bosib o'tgan yo'lini aniqlang.

1) chap bo'lmacha; 2) o'pka arteriyasi; 3) o'ng bo'lmacha; 4) yuqorigi kovak vena; 5) chap qorincha; 6) o'ng qorincha; 7) o'pka venasi; 8) katta qon aylanish doirasining arteriya qon tomirlari; 9) pastki kovak vena.

A) 9, 3, 6, 7, 2, 1, 5, 8 B) 4, 3, 6, 2, 7, 1, 5, 8 C) 9, 1, 6, 7, 2, 3, 5, 8 D) 4, 3, 6, 7, 2, 5, 1, 8

19. Odam organizmida boshqaruv tizimlari va ularning funksiyalari o'rtasidagi muvofiqlik to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

a) antidiuretik gormon; b) tiroksin; c) simpatik nerv sistemasi; d) parasimpatik nerv sistemasi;

1) siydik qopi muskullarini bo'shashtiradi; 2) siydik qopi muskullarini qisqartiradi; 3) siydik yig'ilishiga sharoit yaratadi; 4) egri-bugri kanalchalarga ta'sir etadi; 5) reabsorbsiyani susaytiradi; 6) reabsorbsiyani kuchaytiradi; 7) siydik ajralishini ko'paytiradi; 8) siydik ajralishini kamaytiradi.

A) a - 6; b - 5; c - 2; d - 1 B) a - 5; b - 6; c - 1; d - 2

C) a - 8; b - 7; c - 2; d - 3 D) a - 4; b - 5; c - 1; d - 2

20. Mitoz bo'linish natijasida hosil bo'ladigan hujayralarni aniqlang.

1) olabo'taning vegetativ hujayrasi; 2) qorayaloqning tuxum hujayrasi; 3) jigar qurtining tuxum hujayrasi; 4) bo'tako'zning tuxum hujayrasi; 5) tuxumakning generativ hujayrasi; 6) gazandaning tuxum hujayrasi; 7) tridaknaning spermatozoidi.

A) 1, 2, 4 B) 3, 6, 7 C) 2, 3, 5 D) 4, 5, 6

21. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.

Tireotoksikoz

A)qalqonsimon bez funksiyasining susayishi B)qalqonsimon bez funksiyasining kuchayishi

C)qalqon orqa bezi funksiyasining pasayishi D) ayrisimon bez funksiyasining kuchayishi

22. Berilgan organizmlardan birinchi tartibli konsumentlar (birinchi darajali konsumentlar) to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) sakkizoyoq; 2) so'na; 3) suluv ninachi; 4) sariq ilon; 5) karam kapalagi qurti; 6) kaptar; 7) jayron; 8) jirafa; 9) qirg'iy; 10) zubr; 11) boyo'g'li; 12) bo'ka; 13) bug'u; 14) qutb meduzasi; 15) qum bo'g'ma iloni; 16) qora kalxat; 17) manta.

A) 2, 3, 6, 14, 17 B) 5, 7, 8, 10, 13 C) 1, 4, 12, 15, 16 D) 7, 9, 11, 13, 16

23. Yuragi ikki kamerali ochiq qon aylanish sistemasiga ega hayvonlarni aniqlang.

A)sterlyad, treska B)suluv ninachi, salamandra

C)bitiniya, suv shillig'i D)termit, dengiz toshbaqasi

24. Quyidagi organizmlarga mos ta'riflar to'g'ri berilgan javobni belgilang.

a) parmeliya; b) batsidiya.

A) a - bargsimon lishaynik; b - eukariot organizm

B) a - eukariot organizm; b - parazit prokariot

C) a - prokariot organizm; b - bargsimon lishaynik

D) a - avtotrof organizm; b - prokariot organizm

25. DNK fragmentining bir zanjiri 1050ta nukleotidlardan iborat bo'lib, DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlari 10%ni tashkil etadi. DNK qo'sh zanjiridagi jami vodorod bog'lar sonini (a) va undan sintezlangan oqsilning molekular massasini (b) aniqlang.

(Oqsil tarkibidagi bitta aminokislota qoldig'ining molekular massasi 120 ga teng, i-RNK ning barcha kodonlariga t-RNK ning antikodonlari komplementar.)

A) a - 1680; b - 63000 B) a - 2940; b - 42000 C) a - 2940; b - 31500 D) a - 1680; b - 126000

26. Bo'rsiq bilan bir tip (1), sinf (2), turkum (3), oila (4) ga mansub hayvonlarni aniqlang.

A) 1 - ko'rgalak; 2 - tapir; 3 - tyulen; 4 - larcha

B) 1 - assidiya; 2 - o'rdakburun; 3 - ilvirs; 4 - norka

C) 1 - sterlyad; 2 - kasatka; 3 - yaguar; 4 - nutriya

D) 1 - gavial; 2 - o'rdakburun; 3 - ilvirs; 4 - qulon

27. To'g'ri fikrlar berilgan javobni aniqlang.

a) Hindomalay biogeografik viloyatida tupay uchraydi; b) Habashiston biogeografik viloyatida opossum uchraydi; c) Neotropik biogeografik viloyatida yovvoyi gajak dumli ayiq uchraydi; d) Avstraliya biogeografik viloyatida vixuxol uchraydi. (Tabiiy holda tarqalgan.)

A) c, d B) a, c C) b, d D) a, b

28. Xo'roz patining chipor rangda bolishi (B) qora bo'lishi (b) ustidan, toj shaklining gulsimon bo'lishi (A) oddiy bo'lishi (a) ustidan to'liq dominantlik qiladi. Pat rangini yuzaga chiqaruvchi genlar jinsiy X, toj shaklini belgilovchi genlar autosoma xromosomada joylashgan. Gomozigotali qora rangli gulsimon tojli tovuq ovogenezining ko'payish davri profazasida b allellari (I) va a allellari (II) soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A) I-4; II-4 B) I-2; II-0 C) I-2; II-4 D) I-4; II-0

29. Bada (a), qora chirildoq (b), kaltakesak (c) uchun mos tushunchalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A) a - fototrof organizm; b - xemotrof organizm; c - o'simlikxo'r organizm

B) a - avtotrof organizm; b - geterotrof organizm; c - konsument

C) a - produtsent organizm; b - umurtqali organizm; c - xemotrof organizm

D) a - geterotrof organizm; b - eukariot organizm; c - konsument

30. Quyidagi olimlarning biologiya fani rivojiga qo'shgan hissalari va aniqlagan kashfiyotlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) Koen - ilk bor genlarni klonlashtirgan; b) M.S.Navashin - madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlarini aniqlagan; c) J.Uotson - eritrotsitlardagi rezus omilni aniqlagan; d) R.Virxov - hujayrasiz hayot yo'qligini aniqlagan.

A) a, c B) a, b C) a, d D) b, c

Ushbu test 800 talik testimizdan na'muna agarda siz to'lliq variantini sotib olmoqchi bo'lsangiz

@Akbaral1_me` nomli lichkaga murojaat qiling.